



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SURXONDARYO VILOYATIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR



2023- YIL YANVAR-SENTABR

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida jami 9 834,2 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 112,3 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning tarkibida 75,1 % yoki 7 389,2 mlrd. so‘m investitsiyalar jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 24,9 % yoki 2 445,0 mlrd. so‘m moliyalashtirildi.

Shuningdek, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2 248,1 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 7 586,1 mlrd. so‘m investitsiyalar o‘zlashtirildi.



Jami investitsiyalar hajmi 9 834,2 mlrd. so‘m

Jami Investitsiyalar o‘shir sur‘ati - 112,3 %

Markazlashgan investitsiyalar 2 248,1 mlrd. so‘m

O‘z mablag‘lari 2 445,0 mlrd. so‘m

Asosiy kapitalga investitsiyalar– yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan xarajatlar majmuini bildiradi.

Markazlashmagan investitsiyalar 7 586,1 mlrd. so‘m

Jalb etilgan mablag‘lar 7 389,2 mlrd. so‘m

Xorijiy investitsiya va kreditlar 4 791,1 mlrd. so‘m

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Hajmi, mlrd. so'm

O'sish sur'ati, % da



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 993,8 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 10,1 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 14,8 % i yoki 1 451,2 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 3 249,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va jami investitsiyalardagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 15,6 % punktga ko'payib, 33,0 % ni tashkil etdi.




Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 640,8 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 6,5 % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,8 % punktga kamaydi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 290,7 mlrd. so'm (3,0 % va 3,1 % punktiga kamaydi), kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 1 250,5 mlrd. so'm (12,7 % va 2,8 % punktga kamaydi), Respublika budjeti 1 891,1 mlrd. so'm (19,2 % va 5,1 % punktga ko'paydi), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 66,3 mlrd. so'm (0,7 % va 4,1 % punktga kamaydi) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan, % da

Oltinsoy tumani




Respublika budjeti

Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi

Angor tumani




Respublika budjeti

Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi

Bandixon tumani




Respublika budjeti


Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi

Boysun tumani



Muzrabot tumani




Respublika budjeti

Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi


Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi

Denov tumani




Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan, % da


Jarqo'rg'on tumani




Qumqo'rg'on tumani




Qiziriq tumani




Sariosiyo tumani



Termiz tumani



Uzun tumani




Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan, % da


Sherobod tumani



Sho'rchi tumani




Termiz sh.



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan, % da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning statistik hisobi, qo'shimcha qiymat solig'ini qo'shgan holda, hisobot davrida amaldagi narxlarda, to'lov amalga oshirilgan paytdan qat'iy nazar, haqiqatda o'zlashtirilgan hajm miqdorida amalga oshiriladi.





- bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag'lari
- aholi mablag'i
- xorijiy investitsiya va kreditlar
- korxonalar mablag'i



Surxondaryo viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 2 347,6 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 23,9 % ini tashkil etdi, qurilish-montaj ishlari bo'yicha 6 291,5 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 64,0 %) va boshqa xarajatlarga 1 195,1 mlrd. so'm (12,1 %) o'zlashtirildi.

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Sariosiyo tumanida kuzatildi – 88,7 % yoki 1 074,4 mlrd. so'm.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Jarqo'rg'on tumanida kuzatilib, 37,7 % ni yoki 275,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shuningdek, Sherobod tumanida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich – 47,7 % yoki 87,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Asosiy kapitalga investitsiyalar– yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo'naltirilgan xarajatlar majmuini bildiradi.




Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish va texnologik tarkibi, jamiga nisbatan % da

Oltinsoy tumani



Angor tumani




Bandixon tumani




Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish va texnologik tarkibi, jamiga nisbatan % da


Boysun tumani



Muzrabot tumani




Denov tumani




Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish va texnologik tarkibi, jamiga nisbatan % da


Jarqo'rg'on tumani



Qumqo'rg'on tumani



Qiziriq tumani




Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish va texnologik tarkibi, jamiga nisbatan % da


Sariosiyo tumani



Termiz tumani




Uzun tumani




Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish va texnologik tarkibi, jamiga nisbatan % da


Sherobod tumani



Sho'rchi tumani



Termiz shahri



SURXONDARYO VILOYATIDA IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR, JAMIGA NISBATAN % DA

9 834,2 mlrd. so'm

Turar-joy qurilishi

asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi **1 427,7 mlrd. so'm** Jamiga nisbatan **14,5 %**

Qishloq xo'jaligi

asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi **1 125,1 mlrd. so'm** Jamiga nisbatan **11,4 %**

Tog'-kon sanoati

asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi **1 408,3 mlrd. so'm** Jamiga nisbatan **14,3 %**

Ta'lim

asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi **412,1 mlrd. so'm** Jamiga nisbatan **4,2 %**

Sog'liqni saqlash

asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi **268,2 mlrd. so'm** Jamiga nisbatan **2,7 %**

Boshqa faoliyat turlari

asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi **2 652,9 mlrd. so'm** Jamiga nisbatan **26,9 %**

Axborot va aloqa

asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi **69,5 mlrd. so'm** Jamiga nisbatan **0,7 %**

Qurilish

asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi **219,4 mlrd. so'm** Jamiga nisbatan **2,2 %**


Elektr, gaz bilan ta'minlash

asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi **807,6 mlrd. so'm** Jamiga nisbatan **8,2 %**

Ishlab chiqarish sanoati


asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi **1 443,4 trln. so'm** Jamiga nisbatan **14,7 %**

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar




Ulushi
33,0 %

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 3 249,8 mlrd, so'mni yoki, 2022- yilning mos davriga nisbatan 215,0 % ni tashkil etdi




Ulushi
3,0 %

O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 290,7 mlrd, so'mni yoki, 2022- yilga nisbatan 57,3 % ni tashkil etdi



Ulushi
12,7 %

Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar va boshqa xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 1 250,6 trln, so'mni yoki, 2022- yilga nisbatan 93,0 % ni tashkil etdi




O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar

Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 67,8%

O'z.R. kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 6,1%



Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar 26,1%

Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd. so'm

	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar
Surxondaryo viloyati	3 249,8	290,7	1 250,6
Termiz sh.	140,9	229,6	95,0
Oltinsoy	-	-	134,1
Angor	82,6	-	102,7
Bandixon	54,3	-	132,9
Boysun	1 566,7	-	-
Muzrabot	138,7	5,6	-
Denov	9,2	-	344,9
Jarqo'rg'on	279,5	20,2	117,6
Qumqo'rg'on	-	-	47,2
Qiziriq	15,0	-	72,5
Sariosiyo	94,8	35,3	-
Termiz	67,4	-	144,9
Uzun	76,0	-	2,2
Sherobod	684,3	-	21,9
Sho'rchi	40,4	-	34,7

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar – ustav kapitalda 10 foizdan kam bo'lmagan ulushga ega xorijiy investorning moliyaviy va nomoliyaviy qo'yilmalaridir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalar **iqtisodiy faoliyat turlari** bo'yicha amaldagi faoliyat turlari tasniflagichiga IFUT-2 ga asosan taqsimlanadi.

Surxondaryo viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish



0,0
uzunlikdagi gaz
tarmoqlari

Umumiy maydoni
937,6 ming kv.m
bo'lgan turar joylar
ishga tushirildi



33,3 km
uzunlikdagi suv
tarmoqlari ishga
tushirildi



2 550 o'ringa
mo'ljallangan
maktabgacha ta'lim
muassasalari ishga
tushirildi



Qishloq joylarda
717,2 ming kv.m
bo'lgan turar joylar
ishga tushirildi

8 798
o'quvchi o'ringa
mo'ljallangan
umumta'lim maktablari
ishga tushirildi



Investorlar – yuridik va jismoniy shaxslar bo'lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o'z mablag'lari, qarz mablag'lari yoki jalb qilingan mablag'larni investitsiya ko'rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini ta'minlab beruvchi investitsion faoliyat subyektlari hisoblanadi.



Hududlar kesimida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

	Turar- joylar, ming kv.m	Ulardan: qishloq joylardan ming kv.m	Suv tarmogʻi, km	Gaz tarmogʻi, km
Surxondaryo viloyati	937,6	717,2	33,3	-
Termiz sh.	31,6	-	-	-
tumanlar				
Oltinsoy	16,9	10,2	6,3	-
Angor	54,2	54,2	-	-
Bandixon	23,4	23,4	-	-
Boysun	73,9	38,3	8,5	-
Muzrabot	75,6	75,6	-	-
Denov	131,0	131,0	-	-
Jarqoʻrgʻon	89,0	69,7	-	-
Qumqoʻrgʻon	53,1	34,8	-	-
Qiziriq	33,8	33,8	-	-
Sariosiyo	119,0	61,8	-	-
Termiz	69,5	54,4	10,9	-
Uzun	17,5	11,5	-	-
Sherobod	116,1	87,4	-	-
Shorchi	33,0	31,1	7,6	-